

INKLUZIV TA'LIMNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

*Denov Tadbirkorlik va Pedagogika insitituti Pedagogika Yo'nalishi 4
kurs 8P-22-guruh talabasi Toshpulatova barchinoy Muxiddinovna,*

Madina Mamadramova Olim qizi

Barchinoytoshpolatova086@gmail.com

Tel. +99886917278

mamadramovamadina714@gmail.com

Tel. +998910790549

Annatsiya: *Ushbu maqoladan maqsad alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarga ta'lim berish bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida ma'lumot berishdan iborat. Maqolada inklyuziv ta'limning nazariy va metodologik asoslari, shuningdek, mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, davlatimiz tomonidan ta'lim tizimini yanada inklyuziv qilish yo'lida amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlar ham yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Inkluziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, mahsus maktablar, ijtimoi adaptatsiya, ta'lim-tarbiya, integratsiya, xulq-atvor, indikatorlar.*

KIRISH:

Hozirgi glaballashuv davrida Jahon ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarga ehtiyojlarini o'rganish va shunga qarab ta'lim berish eng asosiy maqsadlardan. Har bir bolaning imkoniyatlariga mos ta'lim sharoitini yaratish maqsadida imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lim olishlari uchun ularning imkoniyatlarini hisobga olinmoqda. Moslashuvchan ta'lim tizimi esa imkoniyati cheklangan bolalarga inkluziv ta'limni tavsiya qilmoqda. BMT ning

ta'lim sohasidagi siyosati yo'nalishlaridan biri balalarning alohida ta'lim ehtiyojlari xilma- xilligini hisobga olgan holda ta'lim berishni nazarda tutadigan inkluziv ta'lim g'oyalarini ishtirokchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini taminlash hisoblanadi. YUNOSCONing inson huquqlari va erkinligini taminlashga qaratilgan dasturlari alohida ta'lim oluvchilarning extiyojini hisobga olib inkluziv ta'limga etibor kuchaymoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan ijtimoiy tenglik qoidalarini amalga oshirishda ta'lim barcha uchun ochiqligini, gender jihatdan tenglikka asoslanganligini ta'minlovchi mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda inkluziv ta'limni ta'lim oluvchilarning ijtimoiy extiyojlarini va shaxsiy manfaatlarini hisobga olgan holdan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi " O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712- son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inkluziv ta'lim rivojlantirish, alohida ta'lim rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida, "Alohida ta'lim extiyojlari bo'lgan bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori shu jumladan.

Asosiy qism: Inklyuziv ta'lim-barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir.

Inklyuzivlik-inglizcha so'z bo'lib, inklusif- qo'shish, birlashtirish manolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan qo'shib birgalikda o'qitish jarayonini ifodalaydi.

Inklyuziv ta'limni oiladan maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv muassasalarida joriy etish natijasida imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan umumiy munosabat o'zgarayotgani ma'lum bo'ldi. Bu esa ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga umumta'lim jarayonidagi barcha tadbirlarda faol va muntazam ishtirok etish imkonini beradi. Buning natijasida stereotiplar shakllanishining oldi olinib, ko'rsatiladigan individual yordam imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratib qo'ymaydi. Ular olgan ko'nikmalarini umumlashtirish imkoniga ega bo'lishadi. Imkoniyati cheklangan insonlar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga reja asosida joriy etilayotgan inklyuziv ta'lim strategiyasi o'qishning uzluksiz va muttasilligini ta'minlaydi. Oila – bolalar bog'chasi – maktab – kasb-hunar kolleji –ish bilan ta'minlash – ushbu tizim kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarini umumta'lim muassasalari va oliy o'quv yurtlariga bimalol, xavfsiramasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi.

Inklyuziv ta'limning maqsadi - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli ta'lim berishni ta'minlashdan iborat.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar ta'limining keng ko'lamliligi va serqirraliligini hisobga olgan holda umumiy o'rta ta'lim jarayonini tashkil etish talab qilinadi. Ularda me'yorda rivojlanuvchi tengdoshlari bilan qiyoslagan holda umumiy o'rta ta'lim jarayonida hayot uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. O'quv jarayonida imkoniyati cheklangan o'quvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda bilimlarni taqdim etish asosida o'z tengdoshlari va

yaqinlari bilan birgalikda hayotiy ko'nikmalarni egallashlari uchun sharoit yaratiladi.

Meynstriling – bu shunday strategiyaki, bunda nogiron bolalar o'z tengdoshlari bilan bayramlarda, turli xil darsdan tashqari vaqtlarda muloqotqiladilar, ayrim bolalar ommaviy maktablarning sinflariga ham kiritilib, ular ta'lim olish maqsadida emas, balki o'z tengdoshlari bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida kiritiladi.

Integratsiya-bu ruhiy va jismoniy nuqsonga ega bo'lgan bolalarehtiyojlariga ko'ra ta'lim jarayonini amalgam oshirish; ular nogiron bolalar uchun moslashtirilmagan maktablarga boradilar, lekin maktabga borish majburiy emas, bu ularning xoxish-istaklaridan kelib chiqadi.

Birinchi inklyuziv ta'lim muassasalari 1980-1990 davrida Rossiyada paydo bo'ldi. 1991-yilda Moskvada terapevtik pedagogika markazi va ota-ona jamoat tashkiloti tashabbusi bilan "Ark" inklyuziv ta'limining birinchi maktabi ochildi. 1992 yilning kuzida "maxsus tarbiyaga muhtojligi bo'lgan shaxslarni integratsiyalashtirish" loyihasi yaratildi, buning natijasida mamlakatning o'n bir hududida maxsus tarbiyaga muhtojligi bo'lgan bolalarni integratsiyalashgan holda o'qitish bo'yicha tajriba maydonchalari tashkil etildi.

Ta'lim va fan vazirligi hay'ati 1996 yilda ovoz bilan bolalar bilan ishlash uchun o'qituvchilar tayyorlash uchun pedagogika oliy o'quv yurtlari o'quv rejalari "maxsus asoslari (tuzatish) pedagogika" va "sog'liqni saqlash maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar psixologiya xususiyatlari" kurslar joriy qildi. 2001- yil 31-yanvar kuni xalqaro ta'lim ilmiy-amaliy konferensiyasida OO'MTV bilan integratsiyalangan shaxslarni tashkil etish konsepsiyasi qabul qilindi. Juda uzoq vaqt davomida maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga nisbatan maxsus segregatsion ta'lim muassasalarida ta'lim tarbiya berish samarali deb hisoblanib kelindi. 1970-1980 yillarga kelib jahon miqyosida insonparvarlik va kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyasining ilgari surilishi maxsus ehtiyojli bolalarga oladilar.

Inklyuziya tushunchasi zamonaviy talim siyosatiga Madlen Well honimning talim siyosatidagi ishlari asosida kiritilgan.

Madlenning takidlashicha pedagoglar ko'pchilik maxsus tarbiyaga muhtoj bolalar uchun "pull-out" xizmati samarasiz ekanligini takidlamogda. "pull out" xizmati shunday xizmatki sinfda dars olib o'quvchilarni darsdan chiqib ketishlarini talab etadi. Gap shundaki ko'pchilik mahsus sinflarga turli guruhlardagi bolalar: pedagogik qarovsiz bo'lgan, maxsus tarbiyaga muhtoj, aqli zaif, hulqida kamchiligi bo'lgan , diqqati tarqoq, va gipper aktif bolalar yuborilar edi. Bundan tashqari tadqiqotchilar mahsus muassasalarga kelgan bolalar hech qachon ommaviy maktablarga qaytib kelmasligidan tashvishlanar edilar.

XULOSA. O'zbekistonda maxsus ta'lim tizimi rivojlangan bo'lib mkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar ta'limini davr talabi darajasida samarali takomillashtirishga davlatimiz tomonidan katta e'tibor berilib kelinmogda va maxsus hamda inklyuziv ta'limni joriy qilish masalalari yuqorida qayd etilgan davlat qonunlari hamda xalqaro huquqlarida qayd etilgan.

Bu ta'lim muassasalarida bolalarni alohida o'qitilishi uzoq yillardan beri davom ettirilib kelinmogda. Imkoniyati cheklangan bolalarni sog'lom tengdoshlaridan ajratilib o'qitilishi natijasida ularning ishga joylashishi, boshqa maktabni bitiruvchi tengdoshlariga nisbatan ancha past foizni tashkil etadi. Imkoniyati cheklangan bolalarni sog'lom bolalar bilan birgalikda maktablarda o'qitish ularni jamiyatga faol integratsiyalashning alternativ bir turidir. Mavjud bo'lgan muammolar bilan bir qatorda uni yechimi ham asta-sekin hal qilinmogda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, inklyuziv ta'lim strategiyasini rivojlantirish ko'p muddatli vaqtni talab qiladi. Bu ta'limni rivojlantirish uchun uni tatbiq qilishga bosqichma-bosqich kompleks yondashuvni amalga oshirish kerak. Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati,

mutaxassislarning fikri bo'yicha imkoniyati cheklangan bolalarni qayerga borib o'qishiga va inklyuziv ta'lim dasturiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.10.2020 yildagi PQ-4860-son
2. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (2023-yil 23-sentyabr qabul qilingan).
3. Махмудов, Ш. К. (2021). Профессионализм и формирование педагогических способности. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 45-50.
4. Kamolovich, M. S., & Isakovich, O. R. F. (2023). Inklyuziv ta'limning shaxs shakillanishidagi ahamiyati. *Science and innovation*, 2(Special Issue 12), 277-279.